



OLIY TA’LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA 7S (SEVEN SKILLS) TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОНЦЕПЦИИ 7S (СЕМЬ НАВЫКОВ) В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE CONCEPT OF 7S (SEVEN SKILLS) IN TRAINING QUALIFIED PERSONNEL IN HIGHER EDUCATION

Siddikov Xasan Taxirovich

Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazi direktori,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail:xasansiddikov1989@gmail.com / (+998-93) 922-29-90

ORCID 0009-0008-1566-9061

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari bitiruvchi talabalarni malakali kadrlar qilib tayyorlashda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kuchli bilim va tajribalarni egallashi bilan birgalikda kelajakda hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi haqida fikr yuritilgan. Dunyodagi ta’lim tizimidagi islohotlar va ta’lim bozorida raqobat muhitini shakllanishi, mutaxassislar tayyorlash tizimini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va ta’lim standartlarida belgilangan malakaviy talablarni uzlusiz takomillashtirishni belgilab bermoqda.

Kalit so‘zlar: produktiv va konstruktiv, ijobiy tajriba, ijobiy munosabat, ijobiy atrof-muhit, yoshlarning pozitiv rivojlanishi, pozitiv faoliyat, konseptual model, strategiya va taktika, o‘qitishning innovatsion usullari, global tendensiyalar, integratsiyalash

Аннотация.

В данной статье мыслится, что высшие учебные заведения будут иметь важное значение в формировании жизненных навыков в будущем, а также в приобретении прочных знаний и опыта по своей специальности в подготовке выпускников как квалифицированных кадров. Реформы мировой системы

образования и формирование конкурентной среды на рынке образования определяют организацию системы подготовки специалистов на основе компетентного подхода и постоянного совершенствования квалификационных требований, указанных в образовательных стандартах.

Ключевые слова: продуктивное и конструктивное, положительный опыт, позитивное отношение, позитивная среда, позитивное развитие молодежи, позитивная деятельность, концептуальная модель, стратегия и тактика, инновационные методы обучения, мировые тенденции, интеграция

Annotation.

In this article, it is thought that higher education institutions will be important in the formation of life skills in the future, together with the acquisition of strong knowledge and experience in their specialty in training graduates as qualified personnel. Reforms in the world education system and the formation of a competitive environment in the education market determine the organization of the specialist training system based on a competent approach and the continuous improvement of the qualification requirements specified in the educational standards.

Key words: productive and constructive, positive experience, positive attitude, positive environment, positive youth development, positive activity, conceptual model, strategy and tactics, innovative teaching methods, global trends, integration.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor-o‘qituvchilarining tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash” kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Jahon ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish, mutaxassislarni bozor muhiti talablariga mos tarzda tayyorlashni tashkil etish va ta’lim standartlarida belgilangan malakaviy talablarni uzluksiz takomillashtirishni taqozo etmoqda. Oliy ta’limda malakali kadrlar tayyorlashda hayotiy tushunchalarning shakllantirishda Sent-Frensis Ksavyer universiteti bilan hamkorlikda tayyorlangan o‘quv dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblandi. Ushbu dastur milliy sharoitga moslashtirilgan bo‘lib, talabalarda yetta hayotiy ko‘nikmalar (7S)ni rivojlantirishga

mo‘ljallangan: ishonch, kompetensiya, xarakter, g‘amxo‘rlik, o‘zaro aloqa, ijodkorlik va fuqarolik tushunchalaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Malakali kadr bu hozirgi zamon talablari asosida o‘z kasbiy kompetentligi, noodatiy vaziyat va muammolarga yechim topib bera oladigan, kreativ fikrlash darajasi bilan birga ma’naviy-milliy, hayotiy nuqtai nazarning mavjudligi, empatiya, o‘zaro yordam ko‘rsatish, rostgo‘ylik, nizoli vaziyatlarni konstruktiv usullar bilan hal etish va o‘zining emotsiyalarini nazorat qila olish, oilaviy va xissiy tamoyillarga mos kadr bo‘lishi lozim.

Kadrlarni tayyorlashda ushbu ilg‘or va innovatsion tushunchalarni egallah samaralidir, chunki ular yoshlarga amaliy ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan va qiziqarli o‘quv tajribalarini taqdim etadi. Biz yuqoridagi tushunchalarni kengroq ta’riflab o‘tishni lozim topdik.

Ishonch-har kim va har narsa uchun berilishi mumkin bo‘lgan tuyg‘u hisoblanadi. Psixologik jihatdan, o‘ziga ishonch-shaxsnинг o‘ziga xos xususiyati, uning mohiyati insonning o‘z mahorati va qobiliyatini ijobiy baholashda, shuningdek, ularning muhim maqsadlarga erishish va insonning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli ekanligini tushunishda yotadi. Lekin ishonch tuyg‘usini barcha ham bir xil tushuna olmaydi. Insonning turli hissiyotlarida namoyon bo‘ladigan bu tushuncha-oila, do‘stlik, mas’uliyat, sevgi tuyg‘ularining poydevori hisoblanadi.

Kompetensiya-tushunchasi lotincha “competo” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “erishyapman”, “loyiqman”, “mos kelmoq” ma’nolarga ega bo‘lib, kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini quyidagicha farqlash lozim (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari



Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ilk bora fanga amerikalik tadqiqotchi N.Chomskiy kiritgan bo‘lib, u 1965-yilda Massachusetts universitetida til nazariyasiga nisbatan “kompetensiya” atamasini taklif qildi. Bunda u “kompetensiya yoki tilni bilish va foydalana olish yoki tilni haqiqatda ishlata olish tushunchalari o‘rtasidagi farq asosini anglash” nazariyasini ilgari suradi va kompetentlikga asoslangan yondoshuv “Competence Based education” ta’limiga asos soladi. Kompetensiya-ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u taxsil oluvchi(ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Xarakter – (yunoncha charaktir-belgi, ajratuvchi sifat, xislat) – ijtimoiy muhitda tarkib topadigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikda va o‘z-o‘ziga munosabatlarida ifodalanadigan, uning muayyan vaziyat va sharoitda namoyon bo‘luvchi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, turg‘un ruhiy xususiyatlar tushuniladi. Xarakter va temperament tushunchalari bir-biriga yaqin turadi. Xarakter shaxsning muhim o‘ziga xos sifatiy tomonidir. Ayni paytda shaxsning ayrim xususiyatlari ham xarakterga, ham temperamentga aloqador bo‘lishi mumkin. Xarakter shaxsning yo‘nalganligi, irodasi va faoliyati bilan uzviy bog‘langan. Xarakterning ko‘p sonli tasniflari mavjudligiga qaramasdan, uning umum qabul qilingan tasnifi hanuzgacha yo‘q.

Xarakterning xususiyatlari juda ko‘p. Uning uchun qat’iyatlilik, shijoatlilik, tirishqoqlik, vazminlik, dovyuraklik, jasorat va aksincha, jur’atsizlik, qo‘rqaqqlik, qat’iyatsizlik, gumonsirash kabi xususiyatlar xosdir. Odamning individual xususiyatlarini yetarlicha aks ettiruvchi xarakterning umum qabul qilingan tasnifi yo‘qligidan, odatda, xarakterga baho berish uchun kishiga xos bo‘lgan eng muhim belgilarni shunchaki sanab o‘tish kifoya. Masalan, saxiy, maqtanchoq, quvnoq, yolg‘onchi, kamsuqum, qasoskor, xasis, dovyurak, bag‘rikeng, qat’iyatli. Agar temperament tug‘ma xususiyat hisoblanib, o‘zgarmas bo‘lsa, xarakter temperamentdan farqli o‘laroq o‘zgaruvchandir. Xarakter shakllanishida ta’lim-tarbiya, atrof-muhit va ijtimoiy omillar katta ahamiyatga ega

G‘amxo‘rlik-kimsa haqida qayg‘urish, uning g‘amini yeish, g‘amxo‘r shaxsga xos ish, xatti-harakat ma’nolariga ega. Ushbu tushuncha har birimizning qalbimizdan chuqur o‘rin egallagan va kunlik hayotimizda o‘zi sezmagan holda tez-tez bajarib turadigan ezgu amallaridan biri hisoblanadi. Har birimiz oilamiz, mahalladoshlarimiz, tanish-bilishlarga va umuman bizga begona bo‘lganlarga ham o‘z yordamimizni ayamaymiz.

O‘zaro aloqa-Real voqeylikda har bir muayyan ob’ekt ko‘p sonli sababiy zanjirlarning murakkab tuguni hisoblanadi. U boshqa ob’ektlardan ta’sirlanish bilan bir vaqtida o‘zi ham ularga aks (reakтив) ta’sir ko‘rsatadi. “Tashqi” va “ichki” sababiy zanjirlar unda uyg‘unlashadi, kesishadi va tarmoqlanadi. Ular bir-biri bilan o‘zaro aloqaga kirishadi va bu o‘zaro aloqa ob’ektda yuz beruvchi barcha jarayonlarning negiziga aylanadi.

Ijodkorlik-insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. “Ijod” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “yaratish”, “yangilikni kashf etish” so‘zlariga monand keladi. Ijodkorlik-sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, taxlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko‘riladi, noto‘g‘ri bo‘lsa yangilanadi va hokazo.

Fuqarolik-jismoniy shaxsning ma’lum bir davlat bilan siyosiy-huquqiy bog‘lanishidir. Bu bog‘lanish fuqaroning tegishli davlatga nisbatan bo‘lgan huquq va burchlari hamda uning o‘sha davlat tomonidan himoya qilinishida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, bozor munosabatlariiga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o‘rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o‘lchanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o‘rni bilan shu ish yoki xizmat o‘rniga talabgor shaxs o‘rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo‘lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo‘llashga oid bir qancha konsepsiylar vujudga keldi.

XULOSA

Buyuk kelajagimiz mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish, ma’naviy va har jihatdan yetuk, axloqan tarbiyalangan yoshlar qo‘lida bo‘ladi. Oliy ta’lim tizimini tugatayotgan yoshlarimizning jamiyatimizdagi barcha o‘zgarishlarga mos qilib tayyorlash barchamizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

Oliy ta'limda malakali kadrlar tayyorlashda 7s (seven skills) tushunchasini rivojlantirishning ahamiyati

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g“risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884?ONDATE=18.03.2022%2000>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlashlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g“risida” PF-37-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6811936>

4. Z.Ibodullayev. tibbiyot psixologiyasi Darslik., 3-nashr. – T.; 2019. – 494-b.

5. Q.Quranbayev, A.Sa’dullayev, A.Jalilov. Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2023. – 301-327-betlar.